

Shabon Muhamadovna Farmonova

Buxoro davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

s.m.farmonova@buxdu.uz

ORCID iD: 0009-0000-7708-5856

BOSHLANG'ICH SINFLARDA XALQARO BAHOLASHNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISHNING ILG'OR TAJRIBALARI

Уибу мақолада бошлангич синф ўқувчиларининг маънавий-интелектуал даражасини ривожлантиришида халқаро баҳолаши талабларидан келиб чиқиб ўқувчиларда китобхонлик маданиятини шакллантиришининг интенсив шакл ва методларини амалиётга тадбиқ этиши ҳақида фикр юритилган.

Таянч сўзлар: халқаро баҳолаши дартури, PIRLS тадқиқотлари, маънавий-интелектуал даражаса, китобхонлик маданияти, халқаро талаблар, стандартлар.

В данной статье рассматривается внедрение интенсивных форм и методов формирования культуры чтения у учащихся, исходя из требований международного оценивания в развитии духовно-интеллектуального уровня учащихся начальных классов.

Ключевые слова: международная программа оценки, исследование PIRLS, духовно-интеллектуальный уровень, культура чтения, международные требования, стандарты.

This article discusses the implementation of intensive forms and methods of forming a culture of reading in students, based on the requirements of international assessment in the development of the spiritual and intellectual level of primary school students.

Keywords: international evaluation program, PIRLS research, spiritual-intellectual level, reading culture, international requirements, standards.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limni tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sون Farmonida ta'lim sifatiga mas'ul idora, tashkilotlar oldiga "...uzluksiz ta'lim tizimini mazmunini sifat jihatidan, shuningdek, professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" kabi qator muhim vazifalar qo'yilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismongan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirishda ona tili ta'limining o'rni alohida ahamiyatga ega. Jumladan, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning bilimini baholash jahon standartlari asosida amalga oshirish bugungi kunda o'qitish jarayoninini samarali tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

PIRLS xalqaro boshlang'ich sinf bitiruvchi o'quvchilarining matnni o'qish va tushish savodxonligini baholash dasturi o'tkazish davrlarida zamonga moslashtirib, topshiriqlar mazmuni va mohiyatini takomillashtirib boradi. Masalan, 4-o'tish davri (PIRLS-2016 yil)da o'quvchilar topshiriqlarni kompyuterda onlayn tarzida o'tkazilib, natijalari elektron hisoblashga o'tkaziladi.

2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida raqamli format, internet orqali muloqot qilishning ko'п sonli turlari (forum, chat, blog), ko'п hollarda matn o'zaro bog'langan veb-saytlar kabi raqamli shakllarga o'tish rejalashtirildi. Lekin shu bilan birga an'anaviy format ya'ni kitoblar, jurnallar, xujjalalar va gazetalardagi kabi an'anaviy yozuv shakllarida ham beriladi. O'quvchilarga beriladigan materiallar rag'batlantiradigan va bir butun samaradoralikni oishiradigan va qiziqarli va tasavvur qilish jihatdan yoqadigan sifatida taqdim etiladi.

PIRLS-2021 dasturida moslanuvchan dizayn qo'llanildi. Xalqaro dasturda qatnashayotgan mamlakatlar o'quvchilari o'qish va qismlarni boshqarishadi, har bir mamlakatda alohida turli xil darajadagi test shakllari moslashtirib beriladi. Mazkur yangi g'oya boshlang'ich sinf bitiruvchilarining turli xil o'qish qobiliyatiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun o'qish darajalarining PIRLS o'lchovini takomillashtirib, o'quvchilarning faolligini oshirib boradi.

"Agar bu bolalar murakkab matnni o'qishsa, unda ular faqat aniq tasvirlangan tafsilotlarni topib olishlari mumkin. Ammo agar bolalarga oddiy matn berilgan bo'lsa yoki matn qismilarga bo'lib taqdim etilsa, ular og'zaki va noverbal tekshiriladigan ma'lumotni topib chiqarib (grafikalar yoki diagrammalar yordamida), voqealarini va qahramonlar harakatlarining sabablari to'g'risida sodda xulosalar chiqarishlari, voqealar va asosiy g'oyani sharhlay boshlaydilar.

PIRLSning muhim maqsadi - to'rtinchchi sinfda o'qish yutuqlari bilan bog'liq uy, jamoat, maktab va o'quvchi omillarini o'rganish. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun o'quv sharoitlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'quvchilar, shuningdek ularning ota-onalari, o'qituvchilari va direktorlari tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalari orqali to'planadi.

PIRLSning vazifa sifatida topshiriqlarning 10 ta varianti taklif qilingan. Sinovlarda adabiy matn qo'llanilgan: "Inverted sichqonchalar", "Bir loy parchasi", "Gulda gullar", "Qovoq zilzilani ogohlantiradi"; "Leonardo da Vinchi", "Antarktida" kabi mashhur ilmiy matnlari; va "Daryo bo'ylab marshrutda" matnlari berilgan. Sinov topshiriqlarining barcha versiyalari bir xil tuzilishga va qiyinchilik darajasiga ega. Sinovning barcha variantlari ikki qismdan iborat bo'lib, ularning har biriga 11 dan 14 tagacha savol topshiriqlari berilgan.

2016-yilda o'tkazilgan PIRLS tadqiqotida materiallar 16 variantda ishlangan bo'lib, ularning har biri bir xil qiyinchilik darajasiga ega bo'lgan. Har bir o'quvchiga ikkita ya'ni badiiy va ilmiy-ommabop matnlari va har bir matn uchun 12-17 ta topshiriqlar berilgan.

PIRLS tadqiqotlari boshlang'ich sinf bitiruvchilarining monitoringi bo'lib hisoblanadi. PIRLS topshiriqlari xaqaro hamjamiyat jamoatchiligi tomonidan kitobni o'qiydigan o'quvchilar uchun eng yaxshi zamonaviy o'qish savodxonligi deb tan olingan.

Nima uchun aynan o'qish savodxonligi ta'lim tizimidagi yutuqlarning markaziyo ko'rsatkichi sifatida tan olingan? Chunki matnlardan olingan ma'lumotlarni tushunish va ishlatish qobiliyati har bir bola taqdiringa va mamlakat farovonligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Tadqiqotlari natijasida o'n bir yashar o'quvchiga o'qish savodxonligini juda yuqori darajada bo'lishi umumiyo o'rta ta'lim maktabini tugatgandan keyin ham ta'lim olishni davom ettirish ehtimolini kuchaytiradi.

O'quvchilarda o'qish savodxonligini yaxshilanishi iqtisodiy o'sishga boshqa savodxonliklarga nisbatan ko'proq o'z ta'sirini ko'rsatadi

PIRLSga a'zo mamlakatlar besh yilda bir marotoba ta'lim olish natijalariga bog'liq bo'lgan, yaxshi o'ylangan ta'limda o'sish imkonini beruvchi strategik qarorlar qabul qilish imkonini yaratidagan ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishadi. Qabul qilinadigan qarorlar ko'lamining farqi shundaki unda butun mamlakatning hamda har bir sinf o'quvchisiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan darajada bo'ladi. Mana shunday qarorlar natijasida yoshlarning o'qish savodxonligi taqdiri hal qilinadi. Dasturning har bir (5 yillik) davriy o'tishida tadqiqotning tashkilotchilari topshiriqlar ma'lumotlar bazasini ayni zamon talablariga mos darajadagi dolzarb matnlari bilan moslashtirib borishadi. O'quvchilarning yosh psixologik rivojlanishi o'sib borayotganligini inobatga olib, bolaning ta'lim-tarbiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga e'tibor qaratib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ma'naviy-intelektual darajasini rivojlantirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish extiyojini anglagan holda pedagogik imkoniyatlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish madaniyatini xalqaro baholash dasturi (PIRLS) asosida baholashda ularda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda quyidagilarga etibor qaratish lozim:

➤ boshlang'ich sinf o'quvchilarning intelektual-ma'naviy darajasini xalaro dastur (PIRLS) asosida baholashga tayyorlashda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning optimal-intensiv shakl va metodlaridan foydalanish;

80

- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intelektual-ma’naviy darajasini rivojlantirishning uchta o‘zaro bog‘liq komponentlari- tushunchalar, ko‘nikmalar, jarayonlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xalaro dastur (PIRLS) mezonlarini bajarishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘z navbatida ta’lim sifat-samaradorligi yanada takomillashtirishga erishish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish asosida xalqaro dastur (PIRLS) ga ishtirok etish va ijobjiy natijalarni qo‘lga kiritish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik madaniyatini shakllantirish xalqaro baholash dasturlari (PIRLS) da muvaffaqiyatli o‘rnlarni egallashga xizmat qiladi.

Demak, boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intelektual-ma’naviy darajasini aniqlash, balki ularning ta’lim mazmunini o‘zlashtirishlari uchun innovatsion o‘qitish usullarini tadbiq etish orqali umume’tirof qilingan xalqaro talablar va standartlarga munosib bo‘lishlarini ta’minlashdan iboratdir.

Foydalanimanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 8 декабрдаги “Халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасида халқаро тадқиқотларни ташкил этиш тўғрисида”ги 997-сонли қарори.
2. И smoилов А ва бошқалар Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma). Т.: Шарқ. 2019. 92 б.
3. Международное исследование «Изучение качества чтения и понимания текста» PIRLS 2001. Институт стратегии развития образования, Российской академии образования Центр оценки качества образования. Тетрадь 1.
4. Рустамова Н.Р Умумий ўрта таълим мактаблари бошланғич ва юқори синф ўқувчилари медиамаданиятини шакллантиришнинг муҳим йўналишлари // Мактаб ва ҳаёт. – Тошкент, 2017. – №3. – Б. 25-28.